

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMATISMOILOVA XANIFA XAYITMIRZAYEVNA**

**NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARI MAISHIY LEKSIKASINING  
AREAL-QIYOSIY TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Mamatismoilova Xanifa Xayitmirzayevna**

Namangan qipchoq shevalari maishiy leksikasining areal-qiyosiy tadqiqi ..... 3

**Маматисмоилова Ханифа Хайитмирзаевна**

Ареало-сравнительное исследование бытовой лексики наманганских  
кыпчакских говоров ..... 23

**Mamatismoilova Khanifa Khayitmirzaevna**

Areal-comparative study of household lexicon of Namangan Kipchak dialects.... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMATISMOILOVA XANIFA XAYITMIRZAYEVNA**

**NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARI MAISHIY LEKSIKASINING  
AREAL-QIYOSIY TADQIQI**

**10.00.01 – O‘zbek tili**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2393 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Darvishov Ibrohim O‘rmonovich**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismoilov O‘tkurjon Hosiljonovich**

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna**

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi. (2024-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.Ya.Sadiqov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

**M.Yu.Sulaymonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**F.I.Karimova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida xalq shevalarini amaliy jihatdan tadqiq etishga milliy tilning tarixi va semantik-struktur taraqqiyotini o'rganishning muhim manbasi sifatida qaralmoqda. Globallashuv davrida ham ko'p asrlardan beri o'zida milliy til lisoniy belgilarini to'la saqlab kelayotgan adabiy tilning tayanchi va rivojlanish manbasi bo'lgan lahja va shevalarning lingvistik jihatlarini amaliy o'rganishda ularning umumlisoniy va dialektal xususiyatlarini tasniflash va tavsiflash, adabiy tilga munosabatini belgilash muhim vazifalardan biri sifatidagi qo'yilmoqda. Bundan ma'lum bo'ladiki, shevalarning jahondagi har bir milliy tilning ozuqasi, adabiy tilning boyishidagi ichki omili ekanligi bois amaliy tilshunoslik asos va tamoyillari orqali zarur hamda muhim o'rinlarini o'rganish o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Dunyo tilshunosligida XIX-XX asrlar til hodisalarining dialektal, areal va lingvogeografik metodlar orqali milliy va adabiy til umumlisoniy xususiyatlarining ilmiy-nazariy qonuniyatlarining aniqlash, ular haqidagi aniq to'xtam va xulosalar chqarish davri ekanligi to shu davrga qadar ta'kidlanib kelmoqda. Endilikda jamiyat taraqqiyoti sababli dialektjlogik til birliklari leksik-semantik belgilarining arealogik nuqtalarini namoyon qilishini lingvogeografik asoslarda o'rganish sohadagi tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Milliy til va uning shevalarini hududiy-areal tadqiq qilish borasida Yevropa mamlakatlari, Rossiya, Turkiya kabi davlatlarda keng ko'lamli ilmiy tajriba to'plangan, ayni davrda ham dialektologik va lingvistik atlaslar, areal xaritalarning mumtoz namunalari yaratilmoqda. Dunyo xalqlari milliy va adabiy tili poydevori bo'lgan xalq shevalarini o'rganish o'zining ilmiy asoslari bilan til taraqqiyoti uchun xizmat qilishining dolzarb ahamiyati tan olinmoqda.

Bugungi Yangi O'zbekiston sharoitida jamiyatimiz rivojlanishi ushun olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda o'zbek tilshunosligi oldiga qo'yilayotgan vazifalarni bajarishga to'liq imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilib, tilimizni har tomonlama o'rganish masalasiga bag'ishlangan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayni paytda o'zbek shevalari xususiyatlarini areal lingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Sohaning nomukammal, oddiy tavsifiy va tasviriy jihatlardan iborat mavhum o'rinlarini yangicha qarashlar asosida, mental nuqtayi nazardan o'rganish va to'ldirishga zarurat sezilmoqda. "...O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, ularning tarixiy taraqqiyoti, istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog'imiz zarur"<sup>1</sup>. Bu borada, avvalo, adabiy tilning, qolaversa, har bir tilning asosi hisoblangan muayyan shevalar tadqiqining o'rni beqiyosdir. O'zbek dialektlari arealogiyasi sohasida ham u yoki bu shevaga xos bo'lgan xususiyatlarni chuqur tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan, bir qator bobo til faktlari asosida puxta o'rganish ko'plab tarixiy-lingvistik muammolarni hal etish yeshimi hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4561730>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-son “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmon va Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek tilshunosligida xalq shevalari leksikasining funksional-uslubiy, qiyosiy-tarixiy, leksik-semantik, lingvopoetik, lingvostilistik birliklariga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Avvalo, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk”, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, keyinchalik hozirgi zamon o‘zbek tilshunos va tarixchi olimlarining tadqiqotlari maydonga kelganki, ularda ham o‘zbek shevalari o‘z davri talablariga xos holda o‘rganilganligini e‘tirof etish lozim.

Jahon tilshunosligida K.de Monbre, J.Jileron, D.Mone, G.Venker, F.Vrede, K.Yaberg, V.Pizani, Y.Yud, P.Meer, V.M.Jirmunskiy, S.I.Bromley, D.I.Edelman, G.Kurat, T.Frinj, P.Tradgil, Y.Sheymbers, I.I.Sreznevskiy va boshqa tilshunoslar arealogiya sohasini o‘z ilmiy tadqiqotlari, nazariy va amaliy xulosalari bilan rivojlantirdilar<sup>2</sup>.

O‘zbek tilshunosligida ham A.Borovkov, K.Yudaxin, Y.Polivanov, G‘.O.Yunusov, V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, A.Ishayev, S.Ibrohimov, A.Aliyev, S.Otamirzayeva, A.Shermatov, A.Jo‘rayev, H.Sharipovlar tomonidan o‘zbek areal lingvistikasi sohasida yaratilgan bir necha tadqiqotlar maydonga keldi<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.

<sup>3</sup> Боровков А.К. Узбекский говоры Наманганской области // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Ташкент, 1963; Юдахин К.К. Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1958. – № 1. – Б. 31-35; Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933; Юнусов Ф.О. Ўзбек лаҳжаларининг таснифида бир тажриба. – Тошкент: Ўқувўздавнашр, 1937; Решетов В.В. Ўзбек тилининг карлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. 1965. – № 5; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент, 1962; Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.20-22;

Ayniqsa, tilshunos olimlardan A.Jo‘rayev, A.Shermatov, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova, Sh.Norbayeva, I.Darvishov, N.Rahmonov, Sh.M. Alimovlar<sup>4</sup> tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o‘zbek areal lingvistikasida o‘ziga xos qayta shakllanish davrini boshlab berdi. XXI asrning 20-yillari o‘zbek dialektologiyasi va areologiyasida ijobiy ilmiy yuksalishlar davri bo‘ldi. Sohaga oid o‘nlab tadqiqotlar maydonga keldi<sup>5</sup>. Albatta, o‘zbek tili dialektlari, ularning areallari masalasi yetarli darajada belgilanib, o‘rganilgan, deb bo‘lmaydi. Shu bilan birga, arealogik tadqiqotlar negizida areal lingvistik konsepsiyalarning tadrijiy taraqqiyotini analiz va sintezlash natijasida dialektlarning konseptual xususiyatlari ham ma‘lum darajada o‘rganilgan, biroq Namangan viloyati qipchoq areallaridagi shevalar, ularning o‘ziga xos leksik-semantik guruhlaridagi xususiyatlar alohida monografik holda tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Til masalalarining antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Namangan viloyati qipchoq shevalari areali maishiy leksikasini qiyosiy-tarixiy nuqtayi nazardan o‘rganib, adabiy til bilan mushtarak va

---

Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – Б.20; Алиев А. Ю. Уйчинский говор узбекского языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1960; Наманганская группа говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент, 1975; Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1974.

<sup>4</sup> Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991. – 220 с.; Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – 57 б.; Муҳаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казахстана. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Иброхимов Й. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Фил. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Муродова Н.К. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини (лексика материаллари асосида) Фил. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 258 б.; Норбаева Ш.Х. Хоразм шевалари касбий лексикаси шаклланишининг ономасеологик тамойиллари: Филология фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2016. – 216 б.; Хоразм шевалари лексикасининг ономасеологик тадқиқи: фил. фанл. докт. (DSc) diss. avtoref. Toshkent – 2024. – 73 б. Дарвишов И. Жанубий-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи: филол.фанлари фалс.д-ри (PhD) ...дисс.автореф. – Фарғона., 2018. – 57 б.; Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи: филол. фанлари фалс.д-ри (PhD) ...дисс.автореф. – Самарқанд, 2018. – 54 б.; Alimova Sh.M. Хоразм қипчоқ шеваларининг лексик-грамматик хусусиятлари. Filologiya fanlari b‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Urganch.2023. - 56 b.

<sup>5</sup> Норова Г.М. Ўзбек тили Зарафшон воҳаси ўзбек шевалари лексикасининг лингвоареал тадқиқи: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Жиззах, 2021. – 53 б.; Норбаева Ш.Х. Хоразм шевалари касбий лексикаси шаклланишининг ономасеологик тамойиллари: Филология фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2016. – 216 б.; Иброҳимова З. Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида қишлоқ хўжалиги лексикасининг лингвогеографик тадқиқи: филол. фанл. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 143 б.; Дарвишов И. Жануби-ғарбий Наманган ишевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи. фил. фанл. бўйича фалс. докт. ... дисс. – Фарғона, 1918. – 147 б.; Норбаева Ш. Хоразм шевалари лексикасининг ономасеологик тадқиқи: филол. фанл. докт (ДС) ... дисс автореф. – Тошкент, 2024; Турдалиев А. Денов шевабини ареал ўрганиш ва тил корпусига жойлаштириш: фил. фанл. бўйича фалс. докт. автореф. – Тошкент, 2024; Суванова М. Ўзбек халқ шевалари урф-одат, маросим лексикасининг лингвоареал талқини: фил. фанл. бўйича фалс. докт. автореф. – Қарши, 2023; Алимова Ш. Хоразм қипчоқ шеваларининг лексик-грамматик хусусиятлари: фил. фанл. бўйича фалс. докт. автореф. – Урганч, 2023; Хидиралиева З. Ўзбек тилининг Икон шеvasи: фил. фанл. бўйича фалс. докт. автореф. – Тошкент, 2023; Нуржонов О. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари этнографизмларининг антропоцентриқ тавсифи: фил. фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. авторефер. – Жиззах, 2021; Тиллабаева З. Самарқанд шаҳри ўзбек шеваларининг лексик хусусиятлари (карлуқ лаҳжаси мисолида). Фил. фанл. бўйича фалс. докт. автореф. – Самарқанд, 2023; Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: фил. фанл. бўйича фалс. докт. ...дисс. авторефер. – Тошкент, 2018; Суванова М. Қипчоқ шеваларига хос сўзлар луғати. – Самарқанд, 2019. – 90 б.

o'ziga xos farqli jihatlarini hamda ularni yuzaga chiqaruvchi omil va sabablarni ko'rsatib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Namangan qipchoq shevalari leksikasidagi o'zgachaliklarning hududlar etnik va tabiiy geografik xususiyatlariga bog'liqligini asoslash;

shevalarning adabiy tildan farqlanishini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-madaniy omillarning tarixiylik nuqtayi nazaridan lingvomadaniy lisoniy xususiyatlarini aniqlash;

Namangan qipchoq shevalari maishiy leksikasining shakl va ma'no munosabatlaridagi polisemantik, sinonimik, omonimik, antonimik lisoniy jarayonlarning sodir bo'lish yo'llarini belgilash;

Namangan qipchoq shevalari maishiy leksikasidagi evfemizm va tabularning paydo bo'lishidagi sabablarni, ularning qo'llanishidagi o'ziga xos diniy, mifologik, milliy-madaniy jihatlarini ko'rsatib berish;

viloyatning qipchoq shevali areal zonalaridagi maishiy leksik birliklarning o'z va o'zlashganlik ko'rsatkichlarini aniqlab, ularni tasnif va tavsiflash;

areal aholisining maishiy hayotiga oid dialektizmlarni turkiy tillar va boshqa o'zbek shevalari hamda adabiy til leksikasi bilan qiyoslab, ularning adabiy til bilan munosabatini ochib berish, qipchoq shevalaridagi bir qator maishiy leksik birliklarni adabiy lashtirish bo'yicha ayrim taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** Namangan viloyati qipchoq shevalari arealida joylashgan barcha shaharcha va qishloqlar aholisi shevalari va ularning hududiy tili leksik fondi, lug'at (leksik) tarkibi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** Namangan viloyati qipchoq shevalari leksikasining o'ziga xos lingvoareal ko'rinishlari, xususiyatlari, mavzuiy guruhlari va ularning leksik-semantik jihatlarini, ifoda usullari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda areal-lisoniy tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirish-qiyoslash, etnolingvistik, lingvogeografik, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Namangan viloyati qipchoq sheva areallarining maishiy leksikasiga xos xarakterli fokus nuqtalari, leksik o'zgachaliklarning hududiy etnik va tabiiy geografik xususiyatlariga bog'liqligi asoslangan, lingvogeografik, lingvomadaniy xususiyatlari tavsiflangan;

tarixiy-qiyosiy paradigmalarga tayanib turkiy va turkiy bo'lmagan xalqlarning migratsiyasi va konsolidatsiyasi natijasidagi ijtimoiy hodisa va jarayonlar orqali mahalliy tillarda vujudga kelgan o'ziga xos leksik birliklarning lingvistik-semantik hamda shakl va ma'no munosabatlari Namangan qipchoq shevalari zonasiga xos lisoniy belgilari tarixiylik nuqtayi nazaridan aniqlangan;

Namangan qipchoq lahjali aholi vakillarining etnogenezi, urug' va qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishi (migratsiya), birlashishi (konsolidatsiya) jarayonlari tarixiy voqeliklar natijasi ekanligi aniqlanib, achchiq [aččix//ačiq], balchiq [balčix//balčiy], beshik [bešij://bešig], burchak [büččaj//kunžak//tüpčak], bo'g'iz [bo'wiz], dovul [do'wil//dowul//daul//davit], jiyda [jigda//jiyde//žigda] kabi 500 ga yaqin qipchoq sheva areallarida faol

qo‘llanuvchi leksik birliklarning lisoniy ifodalari faktik ma‘lumotlar beruvchi asos sifatida dalillangan;

Namangan qipchoq shevalari areali maishiy leksikasining o‘zaro birlashtiruvchi izoleksemalarining amal qilish areallari, lug‘aviy shakl va ma‘no munosabatlari, dialektal evfemizm va tabular, ularning etnogenetik hamda etimologik asoslariga ko‘ra nutqiy ifodalardagi fonetik-fonologik, enantiosemik (bir-biriga qarshi sema, belgi, ishora) farqli qo‘llanishlari isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Namangan viloyati qipchoq shevalari maishiy leksikasini qiyosiy-tarixiy jihatdan areal yo‘nalishda o‘rganish asosida yuzaga kelgan tadqiqot natijalari nafaqat o‘zbek tili tarixi uchun, balki turkologiya fani uchun ham ma‘lumotlar berishi asoslangan;

Namangan viloyati qipchoq shevalari maishiy leksikasi bo‘yicha to‘plangan dialektologik materiallar – leksik birliklarning tahliliy natijalari mazkur hudud shevalari lug‘at tarkibidagi so‘zlar o‘zbek adabiy tilini boyitish uchun ichki manba sifatida xizmat qilishi dalillangan;

Namangan viloyati qipchoq shevalari maishiy leksikasining tarqalish areallarini belgilashdagi izoleksemalar shevalararo hududiy farqlarni aniqlash, shuningdek, hudud tilining boshqa o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili bilan farqli va umumiy munosabatini ko‘rsatish, til tarixiy taraqqiyotining ba‘zi masalalarini hal qilish, o‘zbek areal lingvistikasi sohasining rivoji hamda o‘zbek tilining dialektologik atlasini yaratishga manba sifatida belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** aniq daraja va asoslarda muammo qo‘yilganligi, chiqarilgan ilmiy xulosalarning areal-tavsifiy, komponent, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy tahlillar bilan dalillanganligi hamda ularning amaliyotga joriy etilganligi, shevaga xos leksik birliklarga o‘zbek milliy tilining tabiatidan kelib chiqib yondashilib, amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Namangan qipchoq shevalari maishiy leksikasini areal-qiyosiy o‘rganish orqali to‘plangan materiallar va ilmiy xulosalar o‘zbek tilshunosligi hamda dialektologiyasida o‘zbek lingvistik geografiyasi va o‘zbek areal tilshunosligi sohalarining ilmiy asoslarda o‘rganilishi, boyishi hamda takomillashuviga yangi ilmiy-nazariy ma‘lumotlar beruvchi manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, o‘zbek tilining umummilliy dialektologik xaritasi va miniatlaslar tuzish, turkiy etimologik, hududiy-lisoniy va qiyosiy-tarixiy yo‘nalishdagi izlanishlar, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalariga o‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek areal lingvistikasi fanini o‘qitishda foydalanish, shu bilan birga, til va madaniyat bilan bog‘liq maxsus kurs hamda seminarlar tashkil etishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Namangan qipchoq shevalari maishiy leksikasining areal-qiyosiy tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Namangan viloyati qipchoq sheva areallarining maishiy leksikasiga xos xarakterli fokus nuqtalari, leksik o'zgachaliklarning hududiy etnik va tabiiy geografik xususiyatlariga bog'liqligi asoslangan, lingvogeografik, lingvomadaniy xususiyatlari tavsiflangan o'rinlardan, xulosa va to'xtamlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarga mo'ljallangan PZ-2020042022 "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi"ni yaratish bo'yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 1-iyuldagi № 04/1-1718-son ma'lumotnomasi). Natijada turkiy va turkiy bo'lmagan xalqlarning migratsiyasi va konsolidatsiyasi natijasidagi ijtimoiy hodisa va jarayonlar orqali mahalliy tillarda vujudga kelgan o'ziga xos leksik birliklarning lingvistik-semantik xususiyatlari haqidagi fikrlar boyitilgan;

tarixiy-qiyosiy paradigmalarga tayanib turkiy va turkiy bo'lmagan xalqlarning migratsiyasi va konsolidatsiyasi natijasidagi ijtimoiy hodisa va jarayonlar orqali mahalliy tillarda vujudga kelgan o'ziga xos leksik birliklarning lingvistik-semantik hamda shakl va ma'no munosabatlari boshqa lahjalar va o'zbek adabiy tiliga nisbatan taqqoslanib, Namangan qipchoq shevalari zonasiga xos etno va lingvomadaniy, pragmatik, sotsiolingvistik va mentolingvistik belgilari aniqlangan o'rinlardan O'zbekiston Pespublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan 2022-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi IV. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va "Besh muhim tashabbus" doirasida amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Pespublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2022-yil 14-sentyabrdagi 262-son ma'lumotnomasi). Natijada shevaga xos so'zlarning adabiy tilning boyligi, sofligi, aniqligi, mantiqiyliigi, to'g'riligi va ta'sirchanligini oshirishda muhim asos bo'lib xizmat qilishi, tilimizning yashovchanligini yanada mustahkamlashga bevosita ta'sir qilish xususiyatlari nazariy jihatdan asoslangan;

Namangan qipchoq lahjali aholi vakillarining etnogenezi, urug' va qabilalarning migratsiya, konsolidatsiya jarayonlari tarixiy voqeliklar natijasi ekanligi aniqlanib, achchiq [aččix//ačiq], balchiq [balčix //balčiy], beshik [bešij://bešig], burchak [büččaj//kunžak//tüpčak], bo'g'iz [bo'wiz], dovul [do'wil//dowul//daul//davil], jiyda [jigda//jiyde//žigda] kabi 500 ga yaqin qipchoq sheva areallarida faol qo'llanuvchi leksik birkiklarning lisoniy ifodalari faktik ma'lumotlar beruvchi asos ekanligi dalillangan ilmiy xulosalaridan "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar" muharririyatining "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlarini yoritishga oid eshittirishlarining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 13-sentyabrdagi 04-36/1495-son ma'lumotnomasi). Natijada shevaga xos barqaror birikmalarning milliy-madaniy, ijtimoiy-tarixiy ildizlari adabiy va badiiy tilning boshqa namunalari bilan uzviy aloqada ekanligi ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta respublika miqyosida, 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 11 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish ushuncha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**O'zbek shevalarining lingvogeografik va areal-qiyosiy yondashuvlar asosida o'rganilishi**» deb nomlangan bo'lib, unda til muttasil rivojlanishining ijtimoiy jarayonlari, yangidan yangi tushunchalar, so'zlar paydo bo'lishining uzluksiz davom etishi, mazkur jarayonda til leksikasi sofliğini ta'minlash va umumxalq tiliga yaqinlashtirish uchun uning xalq shevalaridagi so'zlar bilan boyitilishiga jiddiy ahamiyat qaratish zarur ekanligi kabi masalalar yoritilgan. Boshqacha aytganda, xalq shevalari adabiy til leksikasini boyituvchi va uning asosini tashkil etuvchi manba sifatida millat ongidagi juda ko'p nomlanmagan tushunchalarni atovchi birliklarga ega. Shu birliklar orqali adabiy tilda leksik lakuna sifatida "yashab kelayotgan" tushunchalarni nomlash eng maqbul usuldir. Maxsus nomlanmagan, biroq til egalarining kommunikativ ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi dialektizmlarni xalq shevalaridan topishda muayyan tizimli yondashuv talab qilinadi.

Sharq davlatlarida areologiya sohasining rivojiga – areal turkologiyaga, ayniqsa, dialektologiyaga XI asrdayoq Mahmud Qoshg'ariy<sup>6</sup>, keyinchalik Alisher Navoiy<sup>7</sup> tomonidan tamal toshi qo'yilgan bo'lib, ularning ilmiy qarashlari hozirda ham biz uchun o'zbek tilshunosligining mayog'i sifatida qo'llanma bo'lib kelmoqda. Turkiy tillarning ilmiy o'rganilishi o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek dialektologiyasi sohasining rivoj topishida muhim o'ringa ega. Professor N.A.Baskakov<sup>8</sup> va boshqa ko'plab turkolog olimlarning shu maqsaddagi ilmiy-

<sup>6</sup> Кошғарий М. Девону луғат-ит турк. (Тарж. ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов). – Тошкент, 1960-1963.

<sup>7</sup> Навоий А. Муҳокамат-ул луғатайн. Тўла асарлар тўплами. 16-т. – Тошкент, 1991.

<sup>8</sup> Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков // Изв.АН СССР. XI Вып. 2. – М., 1952. – С. 121-135.

nazariy konsepsiyalari turkologiya va o‘zbek shevashunosligi taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi.

Namangan viloyati shimol, shimoli-sharq va janubi-sharqiy tomondan Qirg‘iziston Respublikasi, janubdan Andijon viloyati bilan, g‘arb va shimoli-g‘arbiy tomondan Toshkent viloyati, janubi-g‘arbdan esa Farg‘ona viloyati bilan chegaradoshdir. Biz mazkur oraliqdagi hududni Namangan viloyati dialektal areali deb belgiladik.

O‘zbek xalqi va o‘zbek milliy tilining shakllanishida ko‘pgina etnik guruhlarining ishtirok etgani ma‘lum. O‘zbek millati o‘z etnik tarkibining serqirra va murakkabligi bilan boshqa turkiy xalqlardan ajralib turadi. Bu hol o‘zbek tilining ko‘p shevali til bo‘lishiga ham asos bo‘lgan<sup>9</sup>.

O‘zbek shevalarini o‘rganishda shevalarga xos xususiyatlarning birgina tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik, turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiq qilinishi va shu nuqtayi nazardan baholanishi tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, arealogik va hozirgi adabiy tildagi ko‘plab nazariy va amaliy muammolarning yeshimini topishda juda katta yordam beradi.

Bizgacha viloyat shevalari va ularning o‘ziga xos fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlarning<sup>10</sup> mavjud bo‘lishiga qaramay, uning barcha hududiy shevalari lingvistik jihatdan tahlilga tortilmagan, hali o‘rganilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud.

Qadimdan Namangan viloyati hududi aholisining asosiy qismini o‘zbeklar, tojiklar va qirg‘izlar tashkil qilgan. Bundan tashqari, ushbu dialektal arealda tarixning turli bosqichlarida ko‘chib kelib, o‘rnashib qolgan ko‘plab turli etnos vakillarining<sup>11</sup> avlodlari ham istiqomat qiladilar.

Farg‘ona vodiysidagi etnoslararo jarayonlar haqidagi fikrlarga asosan<sup>12</sup> Namangan dialektal areali uch etnik qatlamning o‘zaro birgalikdagi hayot tarzi, kundalik muloqot va aloqa-aralashuvi mahsuli – hosilasi sifatida quyidagi murakkab etnojaryonlar, aniqrog‘i, etnolingvistik jarayonlar orqali shakllangan:

birinchisi, etnik komponentlari uzoq etnogenetik assimilyatsiya (qorishuv) natijasida shakllangan eron tilli xalqlar bilan turkiy etnosli shahar va qishloq aholisi;

ikkinchisi, ilmiy adabiyotlarda “ilk qabilalar” deb ataluvchi aholi vakillari;

---

<sup>9</sup> Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2012. – Б.3; Марқаев К.Ш.Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2008. –Б. 13.

<sup>10</sup> Алиев А.Ю. Уйчинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1960; Наманганская группа говоров узбекского языка. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук – Ташкент, 1975; Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Л., 1963; Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1974. Тулаков С. Морфологические особенности наманганского говора. Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1965; Шарипов О. Поп шевасининг морфологияси. Ученые записки АГПИ. IV. – Андижан, 1957.

<sup>11</sup> Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX асрнинг бошлари). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 20 - 40.

<sup>12</sup> Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Тошкент: Фан, 1974. – С. 109-114-116; Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX асрнинг бошлари). –Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 10-11.

uchinchisi, keyingi davrlarda Farg‘ona vodiysiga ko‘chib kelgan Dashti Qipchoq qabilalari vakillari bo‘lmish qipchoq va qoraqalpoq urug‘lari o‘zbek xalqining ajralmas qismi bo‘lgan Namangan viloyati hududi aholisi shakllanishidagi uchinchi yirik etnik qatlam hisoblanadi.

Darhaqiqat, tilshunos olim Xudoyberdi Donyorov haqqoniy ta’kidlaganidek: “o‘zbek millatining son va tarkib jihatidan eng katta komponentini qipchoq – o‘zbeklar tashkil etadi. Bu komponentning asosiy qismi tarixiy xronologik nuqtayi nazardan o‘zbek millatining tarkibiga eng keyin qo‘shilgan, lekin ayni vaqtda butun millat a’zolarining yagona va umumiy nomi bo‘lib qolgan “o‘zbek” nomini ham shu komponent olib kelgan”<sup>13</sup>.

Namangan viloyati hududida qadimdan yashab kelgan turli etnoslarga mansub xalqlar haqidagi ma’lumotlardan<sup>14</sup> dialektal arealning har bir guruh shoxobchalarida ana shu etnik guruhlarning til unsurlari, etnografik belgilari ko‘zga tashlanadi.

Namangan viloyati dialektlari haqidagi birinchi ma’lumotlar V.Nalivkin va M.Nalivkinalar tomonidan yaratilgan lug‘atda<sup>15</sup> qayd etilgan. Bu lug‘at o‘zbek dialektologiyasi sohasida qilingan birinchi ish bo‘lgani ushuncha ham ahamiyatlidir. A.Aliyev va S.Tulyakovlarning ta’kidlashicha, Nalivkinlar lug‘atida sheva xususiyatlari aniq transkripsiya belgilari bilan berilmaganligi uchun Namangan shevasiga xos o‘rinlarni ajratib olish qiyin<sup>16</sup>. Bizningcha, ishga o‘sha davr nuqtayi nazari bilan yondashish o‘rinlidir.

O‘tgan asrda shved turkshunosi Gunnar Yarringning Namangan dialektiga kiruvchi Qilich shevasiga bag‘ishlangan ingliz tilidagi kitobchasi (*Jarring G. The Uzbek Dialect of Qilich. (O‘zbek tilining Qilich shevasi) Leipzig, 1937*) chop etiladi. Ishda, tilshunoslarning e’tiroficha, hozirgi Chust tumaniga qarashli Qilich (hozirgi Uzun qishlog‘i) shevasining ayrim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarining tasviriy bayoni keltirilgan<sup>17</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Namangan viloyati shevalari areologik-qiyosiy leksikasi: lug‘at boyligi va tarkibi”** deb nomlanadi va unda quyidagilar yoritilgan:

Namangan viloyati qipchoq sheva areallari maishiy leksikasining o‘ziga xos lisoniy belgilarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin.

<sup>13</sup> Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.8-9; Абдиев М. Худойберди Донёров // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 115.

<sup>14</sup> Аскарлов А.А. Некоторые вопросы истории становления узбекской государственности // ОН Узб., 1997. – №3. – С.66; Шониезов К. Канг давлати ва канглилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.5; Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 92; Ишандадаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз ясашининг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир). Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1967. – Б. 19; Спришевский В.И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963. – С.21.

<sup>15</sup> Наливкин В., Наливкина М. Русско-сартовский и сартовско-русская словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда. – Казань, 1884.

<sup>16</sup> Алиев А.Ю. Наманган диалекти ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент: Фан. 1967. – Б. 37-45; Туляков С. Морфологические особенности Наманганского говора узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – 1965. – С. 6.

<sup>17</sup> Алиев А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1975. – С.8.

**1. Shevaning asosiy xususiyatlarini belgilovchi xarakterga ega bo'lgan tovush va fonemaning tarqalish darajasiga ko'ra.** Aralash tip shevalarda qipchoq dialektiga xos bo'lgan lingvistik belgilar – singarmonizm qonuniga amal qilinadi. Bu ayrim so'zlar negizida yumshoq va qattiq bo'g'inlarning saqlanib qolganligida va aksariyat hollarda ularning ishlatilishida ko'rinadi. Masalan, *boşqalarijam keldi // boşqolorijom keldi; yolga qarasañçi // yo'lyo qorosonçi* kabi.

[o'] unlisining [u] unlisi bilan almashinishi ham uchraydi: *urgatip (o'rgatib), uwli (o'g'li)*. Bu shevalarda o-lanishga nisbatan a-lanish kushli: *tarā:zi ap ke:, žaj ber* kabi.


Undosh tovushlar almashinib qo'llaniladi: [p>w]: Mas.: *jowuldi, kowekan// koweken*; [g'>w]: *tuwyan, sōw, ōwmoq*; [g>y]: *tijin, ketti, tijirman* kabi.

**2. So'zga affikslarning qo'shilish xususiyatlari, so'zning fonetik strukturasi va boshqa jihatlarga ko'ra.** Ravishdoshning bo'lishsizlik shakli – *may* bilan bir vaqtda eskirgan –*mayin, -masdan* shakllari ham faol qo'llanadi: *bormajin qojdi, körmajin gapirma, bormastan qojdi, ajtmastan qojdi* (bormay, ko'rmasdan) kabi.

Shuningdek, ana, mana ko'rsatish olmoshlariga Yangiqo'rg'on tumanida [-kay] qo'shimchasi qo'shib ishlatiladi: *anakäy, manakäy*. Mingbuloq, To'raqo'rg'on, Pop, Namangan tumani qipchoq sheva vakillari mana bu, ana u ko'rsatish olmoshlarini *monov* tarzida qo'llaydilar.


**3. Namangan viloyatidagi o'zbek tilli aholi arealining shevalar sathiga nisbatan darajasi va faoliyati.** Namangan shevalari areologik asoslarga ko'ra 2-shimoliy Farg'ona dialektal zonasi tarkibiga kiradi.

Professor Aziz Jo'raev tadqiqiga asosan<sup>18</sup> 2-shimoliy Farg'ona dialektal zonasi til tiplariga ko'ra quyidagi sxematik ko'rinishga ega:




<sup>18</sup> Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.


### 3-tur dialektal areal zona




### 4-Tur dialektal areal zona



### E-Tur dialektal areal azona



### D-Tur dialektal areal azona



Demak, Namangan viloyatidagi o'zbek tilli aholi arealining shevalar sathiga nisbatan darajasi va faoliyati oltita bo'lib, ularning ikkitasi azona, ya'ni, o'zbek tilli aholi shevasidan tashqaridagi areallardir.

Ma'lumki, umumxalq tilini tadqiq qilish shu tilda so'zlashuvchi etnos tarixini o'rganishga ko'p jihatdan bog'liq. Chunki tildagi o'zgarish va rivojlanishlar xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga aloqador bo'ladi.

Namangan viloyati hududida yashayotgan aholining avlod-ajdodlari qadim-qadimdan hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq ishlari bilan shugʻullanib kelgan. Ular turkiy va turkiylashgan (Namangan shahridan tashqari) koʻchmanchi urugʻ va qabila vakillari hisoblanib, qadimdan bir-biriga qoʻshilib, qarindosh boʻlib yashab kelmoqdalar.

Kuzatishlardan maʼlum boʻladiki, shevalarning bir-biridan va adabiy tildan farqlanishining aksariyat sabablari murakkab ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy, jugʻrofiy-tarixiy ildizlarga ega. Ularning eng faol va muhimlari sifatida quyidagi omillarni koʻrsatish mumkin:

1. Dialektlarda olamning lisoniy manzarasi adabiy tildagidan farqlanishi.

2. Hududiy jihatdan muayyan guruhning oʻzgacha faoliyat yoki kasb-hunar bilan shugʻullanishi.

3. Kichik hududning yondosh areallardan ijtimoiy, lisoniy, madaniy, iqtisodiy va boshqa jihatdan ajralganligi, lisoniy aloqalarning nofaol boʻlishi, shuningdek, shu hudud aholisining qoʻshni hudud vakillari bilan aloqa qilishni istamasliklari natijasida oʻsha hudud til leksikasining ayro rivojlanishi.

4. Muayyan shevaning geografik jihatdan qoʻshni xalqlar bilan faol ijtimoiy, madaniy aloqalar natijasida shakllanishi.

5. Adabiy tilning meʼyoriy xususiyatlarga ega boʻlishga intilishi.

Namangan qipchoq shevalarida tahlil uchun maishiy leksik qatlamni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

**1. Oziq-ovqat va ichimlik nomlari.** *Poshkal* // *mällanon* // *mäldanon* // *kalpätir* – oshirilmagan xamirdan tayyorlanib, yuqa yoyilib, qozon yoki tandirda pishiriladigan non turlari; *serdäk* – ovqatning qaylasi; *mijixmä* – qaymoq eritib, quyqasi ajratilgandan soʻng unga non toʻgʻrab tayyorlanadigan taom; *qimron* – Namangan qipchoq shevalarida sigir sutiga qaynagan suv solinib, aralashtirib, nahorda ichiladi; *umočoš* – faqat boʻy qizlar yoki tul ayollar ichishi uchun moʻljallab pishiriladigan, maxsus marosim ovqati, atala; *čučüq* – qazi; *pečäkqant* – parvarda; *uno:ši* – ugra ovqat; *pämil čäj* – qora choy; *jöwyon* – jazsiz ovqat va hokazo.

**2. Toʻy, bayram, marosim va faoliyat nomlari.** *Yoʻriq*//*qädiriq* – arealda marosimlarning umumiy nomi; *tušoʻwqirxti* – bola yurishga oʻrgangan kuni oyoqlariga ip oʻtkazib, katta yoshdagi bobo yoki buvisi shu ipni yaxshi niyatlar bilan qirqish marosimi; *nonjopti* // *surpoošti* // *soʻwziqirdi* / */saviztuwradi* – qipchoq shevali aholi tilida toʻydan bir kun oldingi marosim. Namangan viloyati shimoliy-sharqiy sheva arealining ayrim qishloqlarida hozirda *nonjopti* marosimi va leksik birlik saqlangan; *nowrozliq* // *qorjowdi* // *qarjopti* // *jil* // *mä:rakä* – oʻlim marosimlari bilan bogʻliq atamalar, ular shu marosimlar oʻtkaziladigan kunlar bilan bogʻliq; *qujanqošti* – odatda, dehqonchilikning yakuniga nisbatan ishlatiladi. Unda hamma bir boʻlib ishni yakunlaydi. *Qantarowdi* // *qorasowiq* – qish chillasidagi oʻta kuchli sovuq. Sheva vakillarida bu haqda “*Qantar – sarimajinji ontar*” kabi maqol ham qoʻllaniladi. *Toʻxsan* – uch oylik sovuq kunlar, yaʼni qishga nisbatan ishlatiladi. “*Toʻxsan, bir kunimča yoʻxsan*” kabi maqol ham mavjud.

### 3. Qarindosh-urug‘, yaqinlik bildiruvchi yoki shaxslarni ifodalovchi so‘zlar.

*Žihūt* – qarindosh; *žapsi // žaps* – yaqin, qarindosh ma’nosida; *žestü* – pochcha (E-azona turkiy-qirg‘iz areallarida); *bo‘la* – xolaning farzandi, xolavachcha; *jeñü // jeñäčü // oya // äya // kelinbuwi* – kelin oyi, yanga; *mällawoj//xali:bola*– kelinchaklar tilida qayin ukaga nisbatan, *xali:qiz* – kelinchaklar tilida qayinsingilga nisbatan ishlatiladi; *duwänü // gadäj* – tilanchi odam; *čulčit // qanyil* – aniq bir millati, qarindoshi yo‘q kishi; *üka* – bu so‘zning ishlatilish ko‘lami qipchoq lahjasida ancha kengaygan bo‘lib, o‘zidan kichik barcha shaxslar – erkak va ayollarga nisbatan qo‘llaniladi. *Saltlar* – hali bolali bo‘lmagan kelinlar, bolasi katta bo‘lib o‘zidan ajragan xotinlar va bo‘yi yetgan qizlarga nisbatan ishlatiladi va hokazo.

Shuningdek, so‘zning anglatgan ma’nolari qanchalik ko‘p bo‘lsa, til leksikasining ma’noviy maydonlari ham shu qadar ko‘p bo‘lishi haqidagi nazariy asoslarning misollar orqali isbotlari yoritilgan. Namangan qipchoq lahjali shevalar lug‘at fondi va tarkibini tashkil etgan so‘zlarning ko‘pchiligi ana shunday ko‘p ma’noga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

So‘z ma’nolarining ko‘chish yo‘li bilan o‘zgarishlarining quyidagi tiplarini ko‘ramiz:

1. So‘z ma’nolarining o‘xshashlik asosida ko‘chish yo‘li bilan o‘zgarishi:

a) tashqi (shakliy, joylashish o‘rniga ko‘ra) o‘xshashlik asosida. Masalan, *baš // bäs* ( bosh) so‘zining ko‘chma ma’nolari: *išti baši, ojilani baši, buwdaydi baši, očaxti baši, mähälläwä:ši, tojwä:ši* yoki *bet: suttı betı, suwdı betı, optöwbet* (quyosh tushib turgan tomon) kabi ko‘chma ma’nolarda qo‘llanadi;

b) vazifaviy o‘xshashlik asosida. Masalan, *uchmoq* so‘zi odamga nisbatan – *učär* (abjir, qo‘lidan har ish keladigan ma’nosida), otga nisbatan – *učär at*, tushga nisbatan – *tüşim uçip ketti* (esda qolmadi ma’nosida) ko‘chirilganini ham kuzatish mumkin;

2. Metonimiya yo‘li bilan so‘z ma’nolarining o‘zgarishi. Masalan: *čijäl // čijil : jazıyı minčä čijäl eken* (taqdiri buncha chigal ekan) ;

3. So‘z ma’nolarining torayishi yo‘li bilan o‘zgarishi. Masalan: *Qärijälär däm ališ üçün häjätti ortasıya qojılğän čärpajäga barıp otirišti.*

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Namangan qipchoq shevalari maishiy leksikasida tahlilga tortish zarur bo‘lgan lisoniy hodisalar talaygina.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Namangan viloyati qipchoq shevalari maishiy leksikasining lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari**” deb nomlangan, unda Namangan qipchoq shevalari arealida sinonim, antonim, omonim so‘zlar va iboralarning hamda tabu va evfemizmlarning qo‘llanishidagi o‘ziga xos lisoniy xususiyatlar yoritilgan.

Mazkur shevaning dialektal sinonimlari qatoridagi komponent so‘zlar dialektal nuqtayi nazardan turkiy-o‘zbekcha so‘zlar bo‘lsa, ba’zilar kelib chiqishidan qat’i nazar o‘zbek adabiy tilining lug‘at tarkibiga mansub so‘zlardir. Bunday leksik birlik bo‘lgan sinonimlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi xususiy-ichki sinonimlar. *Sep//sarpä//kijit//mäjlamä* (qizlarni uzatish uchun yig‘iladigan matolar va boshqa anjomlar), *dolta//tolta//totra//toppa* (kuydirilgan sariq yog‘ qoldig‘i), *kämzil//nimčä// jęsis* (nimcha, kamzul); *sändäp// čipčęę// ašinča// tiqilinę// itqirin, älamöä:än// čäxsa// čäč* (ko‘p, mo‘l);

2. Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi umumiy-tashqi sinonimlar. *Enä, änä, äpä, ɔpɔ – oyi* (Toshk.) – *buvi* (And.) – ona; adabiy tildagi *chumoli – moriyča/čumɔli/qumusqä*.

O‘zbek shevalaridagi, jumladan, Namangan qipchoq shevalaridagi omonimlar o‘zbek adabiy tilidagiga nisbatan ko‘p ma‘nolarga egadir. Masalan: *čäkkī* (suzma) – *čäkkī* (tomchi) – *čäkkī* (noo‘rin so‘z yoki harakat. *Ɔtamya šu gapti čäkkī gäpirdiŋ*); *čečäk* (kasallik) – *čečäk* (tanadagi ukoldan qolgan iz, qoldiq), *čečäk* – fors-toj.: gul) va hokazo.

Namangan viloyati qipchoq shevalaridagi leksik antonimlarni sifat antonimlar (*säxij – münsik/mümsik; a:riq – hoppa/hišma* (to‘lacha, semiz), *čajir – so‘ltämät*); ravish antonimlar (*bashi – axiri, zār – bezār*); fe‘l antonimlar (*jašargan – qīrtajgan/kertajgan* (qarigan), va hokazo kabi turlarga ajratish mumkin.

